

**MAHALLAGA MEHR, XALQQA SADOQAT:
AYOL RAHBARNING HAYOTBAXSH FAOLIYATI**

Matazova Muxayyo Mamatali qizi

Ohangaron tumani "Uvak" MFY hokim yordamchisi

Tel.: +99894 046-46-47,

e-mail: muxayyomatazova@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Bugungi kunda yurtimizda ayollarning jamiyatdagi o‘rni va nufuzini mustahkamlash, ularning turli sohalardagi faol ishtirokini qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanganligi asoslab berilgan hamda ayol rahbarlar, umuman ayol kishining jamiyatimizga qo‘shayotgan hissasining kelajagimiz poydevorini qurishda yetakchiligi, ishga mas‘uliyatliligi haqidagi fikrlar bayon etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Ayollarning jamiyatdagi o‘rni, Ayol rahbar, faol, tashabbuskor, insonparvarlik, mehribonlik, olijanoblik, mahallada, kelajak avlod, mahalla instituti, sadoqati, shukronalik, rahbar, lider, evolutsiya, jamiyat, strategiya, ekotizim, instinkt, individ.*

KIRISH

Bugungi kunda yurtimizda ayollarning jamiyatdagi o‘rni va nufuzini mustahkamlash, ularning turli sohalardagi faol ishtirokini qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Shu ma‘noda mahalla tizimida faoliyat olib borayotgan ayol rahbarlarning xizmati alohida e‘tirofga loyiq.

Ayol rahbar — bu faqatgina tashkiliy ishlar bilan shug‘ullanuvchi inson emas, balki mahallaning qalbi, aholining e‘tiborini va ishonchini qozongan, muammolarga yechim topuvchi, faol, tashabbuskor shaxs hamdir. Uning mehri va sadoqati mahalladagi har bir oila, har bir fuqaroning farovon hayoti uchun xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Ayol rahbarlar insonparvarlik, mehribonlik va olijanoblik kabi tuyg‘ularni faoliyatida ustuvor qilib, mahallada ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, xotin-qizlar va yoshlar bilan ishlash, ehtiyojmand oilalarga yordam berish, turli tadbirlar va targ‘ibot ishlarini tashkil qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ular mahalladagi har bir muammoni o‘z muammosi deb bilib, hal qilishga harakat qiladi.

Masalan, bir ayol rahbarning tashabbusi bilan mahallada kasb-hunar o‘rgatish kurslari tashkil etildi, yoshlar bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishi uchun sport maydonchalari va kutubxona faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Bu kabi amaliy ishlar natijasida nafaqat aholi ehtiyojlari qondirildi, balki mahallada yashayotgan har bir insonning qalbida iftixor va shukronalik tuyg‘ulari uyg‘ondi.

Ayol rahbarning hayotbaxsh faoliyati nafaqat hozirgi kun uchun, balki kelajak avlod uchun ham ibratli maktab bo‘lib xizmat qiladi. Uning xizmatlari orqali xalqning davlatga, rahbarga va mahalla institutiga ishonchi mustahkamlanadi.

Mahalla instituti mamlakatimizda jamiyatning asosiy tayanchiga aylanib bormoqda. Aynan shu tarkibiy bo‘g‘inda ayol rahbarlarimiz katta mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olib, mahallani obod qilish, aholi turmush darajasini yaxshilash, yoshlarni tarbiyalash, oilalar mustahkamligini ta‘minlash kabi muhim vazifalarni sidqidildan amalga oshirmoqda.

Ayolning tabiatida mehr, sabr, g‘amxo‘rlik va insoniylik tuyg‘ulari mujassam. Shu bois, ularning rahbarlik faoliyati ham ana shu qadriyatlar asosida shakllanadi. Har bir oila, har bir inson taqdiriga befarq bo‘lmaydigan, ular bilan yuzma-yuz muloqot qilib, dardu tashvishlariga hamdard bo‘ladigan rahbarlar — mahalla faoliyatida hal qiluvchi kuch hisoblanadi.

Ayol rahbarlar o‘z faoliyatida nafaqat ijtimoiy muammolarni hal etish, balki ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish, aholini kitobxonlikka jalb qilish, yoshlar orasida ma‘naviyatni oshirish kabi vazifalarni ham bajarishga alohida e‘tibor qaratishmoqda. Ularning tashabbusi bilan o‘tkazilayotgan "Oilaviy maslahat kunlari", "Yoshlar uchrashuvi", "Hududiy tadbirlar" va boshqa loyihalar mahalla hayotida ijobiy o‘zgarishlarga zamin yaratmoqda.

Ayol rahbarning hayotbaxsh faoliyati natijasida ko‘plab ayollar ish bilan ta‘minlanmoqda, ko‘nikma va kasb-hunarga ega bo‘lmoqda. Bu esa oilalardagi ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahallada yorug‘lik, tartib-intizom va muruvvat bo‘lsa, shubhasiz, buning ortida yuksak mas‘uliyatli, sadoqatli va mehribon ayol rahbarning mehnati turibdi. U xalq dardi bilan yashaydi, ularning muammosi bilan yashaydi va shu orqali mehr-muhabbatga, e‘tirofga sazovor bo‘ladi.

Ayol kishi bir tarafdin qaraganda nozik xilqat bo‘lsa boshqa bir tarafdin qaralsa, juda ko‘p ishlari muvafaqiyat bilan bajaruvchi yaxshi ish boshi hamdir. Bunga biz tarixdan ham ko‘p bora guvoh bo‘lib kelmoqdamiz. Qadimgi tarix ham ona urug‘i davri ya‘ni matriarxatdan boshlangan. Bunda qarindoshlar ona tarafdin yaqinlar bilan birlashgan. Agar yaqin o‘tgan tarixga nazar solsak, albatta, Turon xalqlarining ahamoniylar bosqiniga qarshi kurashiga rahbarlik qilgan jasur ayol sarkarda To‘maris haqida o‘ylaymiz. Tarixdan barchamizga ma‘lumki, To‘maris katta jasoratlar ko‘rsatgan. U o‘z qo‘rqmasligi va vatanparvar ekanligini o‘z xalqi ya‘ni massagetlarni dushmanlardan saqlab qoladi. Bu yo‘lda u yaqin insonlari, hatto o‘z farzandini ham yo‘qotadi. Natijada u to‘xtatib bo‘lmas kuchga aylanadi. Dushmanning boshini olib, o‘ziga yarasha jazolaydi. Mana, tarix shohidimiz, ayol -ona! U farzandi uchun har narsaga tayyor..

Yana bir tarixiy jarayonga e‘tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, Sohibqiron Amir Temur malika Saroy Mulk xonim haramdagi barcha malikalardan ulug‘rog‘i hisoblanib, “katta xonim” yoxud “Bibixonim” degan unvonga noil bo‘ladi. Albatta, bunday e‘zozga musharraf bo‘lish uchun aql-zakovat, did-farosat, fikrlash doirasining ulkanligi bosh omil bo‘lgan. Ayniqsa, adolat borasida, xalqni g‘amini yeyish borasida eridan qolishmaydigan darajada edi. Masalan, Amir Temur Eronga qarshi yurish boshlaganda, Isfaxonning qamali ko‘pga

cho‘zilib, qo‘shinni ozuqa bilan ta‘minlashga mablag‘ yetishmay qoladi. Nihoyat, Amir Temur Samarqandga chopar yo‘llab, Saroy Mulk xonimga maktub jo‘natadi. Maktubda mablag‘ tugagani aytilgan edi, bunga: “Ulug‘ amir, zaringiz tugagan bo‘lsa, siyosatingiz ham tugadimu?” – deb yozadi. Shundan so‘ng Amir Temur: lashkargohda so‘yib yeyilgan qo‘y, qoramol, ot va tuya suyaklarini o‘sha kuniyoq yig‘dirib, turli hajmlarda qirqtirib, katta hajmdagisiga katta qiymat, kichigiga kichik qiymat belgilab, unga po‘lat muhrni qizdirib tamg‘a bostiradi hamda muvaqqat pul o‘rnida muomalaga kiritishga farmon beradi.

Biz bu fikrlarni nega isboti bilan keltirdik? Albatta, ayol kishi ish jarayonida rahbarlik lavozimida faoliyat ko‘rsatganda yoki rahbar yonida o‘rinbosar bo‘lgan ish jarayonlarining samaradorligi oshishini barchamiz bilamiz. Bunda ular boshqarish ya‘ni faoliyat yuritish vazifasini bajaradilar.

Boshqaruv - tashkilot maxsus organining funksiyasi bo‘lib, eng kam vositalar (vaqt, kuch, zahira) sarflagan holda eng yuqori natijaga erishish bo‘yicha aniq tashkil etilgan faoliyatdir. [2:58] Bu jarayon bevosita yoki bilvosita rahbarning qo‘lida bo‘ladi.

Rahbar quyidagi 7 ta funksiyani bajaradi:

1. Jamoadagi personni boshqarish;
2. Moddiy-texnik ba‘zani boshqarish;
3. Ichki va tashqo axborotlarni boshqarish;
4. Mablag‘ni boshqarish;
5. Muhitni boshqarish;
6. Shaxslarni boshqarish;
7. Munosabatlarni boshqarish.

Zamonaviy dunyoda boshqaruvning an‘anaviy modellaridan uzoqlashishi, texnologiyaning rivojlanishi va ma‘lumotlarga kirishning qulayligi har bir jabhada o‘ziga xos evolutsiya yaratdi. Ushbu evolutsiya ayollarga ko‘proq yordam berdi va ayollar tashkilotlarda rahbar lavozimlariga o‘ta boshladilar. Hozirda Amerikaning 500 ta yirik kompaniyasi reytingida bosh direktorlik lavozimida ayollar soni 4,6 % ni tashkil etadi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, ayollar yetakchilik usullari boshqacharoq: Ular ko‘proq hamkorlik qilishadi va jamiyat fikriga quloq tutishadi. “Ayol kishi hokimiyatda bo‘lsa, har bir olgan qarorida bolalari, nevaralari taqdirini o‘ylaydi” – deydi Irlandiyaning sobiq prezidenti Meri Robinson. Bugun ayollar jahon iqtisodini yurgizishda katta kuchga aylanmoqda. Ayollar sarflayotgan 20 trillion dollardan ko‘proq pul yil sayin ko‘paymoqda. Jahonga dong‘i ketgan siyosatchi ayollar ozmuncha emas. Margaret Tetcher, Hillari Klinton, Madlen Olbrayt, Kondoliza Rays, Tansu Chiller, Benazir Bhutto va Indira Gandi kabi ismlarni bilmaydigan odam kam topiladi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ayol rahbarning mehri – mahallaga nur, sadoqati esa xalq qalbiga issiqlik bag‘ishlaydi. Ular nafaqat oilada, balki jamiyatda ham tinchlik va hamjihatlikning, barqarorlik va farovonlikning asosiy poydevori hisoblanadi.

Ayol rahbarning faoliyati — bu faqat ish emas, balki yurakdan kelib chiqqan xizmatdir. Bu xizmat orqali mahalla gullab-yashnaydi, xalqning yuzida tabassum, qalbida shukronalik paydo bo‘ladi.

Biz, xotin-qizlarga bunday katta-katta imkoniyatlar yaratilib berilishining o‘zi jamiyatimizda ayollarning ro‘li muhimligidan dalolat beradi. Men aynan O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti “Madaniyat va san‘at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish” ta’lim yo‘nalishiga o‘qishga kirib, ta’lim olayotganimdan juda baxtiyorman. Chunki, bu yerdagi muhit, talabalar, har yerdagi san‘at isi insonga o‘zgacha zavq beg‘ishlaydi. Inson hayot yo‘lida bir nimani bilmadim deya yonib o‘tmasligi kerak. Hind faylasufi aytganidek, biz o‘zimiz ko‘rishni istagan o‘zgarish bo‘la olishimiz kerak. Orzular ro‘yxatimda adolatli rahbar bo‘lish degan o‘rin ochilgan. Men o‘zimdagi barcha savollarga yechim topdim va men endi buning qat’iy bir maqsadga aylanganligini bilaman. Maqsadim yo‘lida qanchalik qiyin va o‘gir bo‘lmasin uni davom eta olishimga ishonch his etdim. Ya’ni, kelajakda ayol rahbarlarning safi yana bittaga ko‘payishiga ishonchim komil

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. J.Rumi. Ichindagi ichingdadir. “Yangi asr avlodi”. Toshkent-2016.134 b.
2. A.Haydarov. Madaniyat va san‘at sohasini boshqarish asoslari. O‘quv qo‘llanma. “Kamalak” nashriyoti-2019. 192 b.
3. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. YUNAKS-PRINT. – Toshkent: 2005. –170 b.
4. O. Tillaev. Ayol lider: Plyus va minuslar nimalardan iborat?
<https://kun.uz/news/2020/03/08/ayol-lider-plyus-va-minuslar-nimalardan-iborat>.
5. N.Nishonova. Davlat boshqaruvi tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish masalalari. “Extremum-Press” bosmaxonasi. Toshkent-2013. 84 b.
6. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
7. Sh.M. Mirziyoeva – “Xotin-qizlar huquqlari: milliy va xalqaro kafolatlar”
– Ayollarning rahbar sifatidagi huquqiy asoslarini ko‘rsatadi.
8. Ibrohimova G. – “O‘zbekistonda ayol rahbarlarning ijtimoiy rollari” (ma’ruzalar to‘plami)
– Ayollar rahbarlik faoliyatining ijtimoiy ta’siri haqida.
9. Mamasheva F.R. – “Ayollar faolligining ijtimoiy-siyosiy asoslari”
– Ayollarning jamiyatdagi faolligi, ayniqsa rahbar sifatidagi rolini yoritadi.
Xalqaro manbalar:
10. Sheryl Sandberg – “Lean In: Women, Work, and the Will to Lead”– Ayol rahbarlar uchun ilhom manbai, gender muvozanati va ish joyidagi tajribalar haqida.
11. UN Women, UNESCO, World Bank hisobotlari – Ayollarning rahbarlikdagi roli, tenglik va taraqqiyot masalalari bo‘yicha tahlillar.

12. “Women and Leadership: Real Lives, Real Lessons” – Julia Gillard & Ngozi Okonjo-Iweala– Jahondagi mashhur ayol rahbarlarning tajribasi.